

NEMIS TILIDA GRAMMATIK VA SO'Z YASASH USULLARI ORQALI STILISTIK BO'YOQQA ERISHISH IMKONIYATLARI

Aminova Mumtozbeqim Abdulla qizi

*Surxondaryo viloyat, Denov tumani 34-maktabda nemis tili o'qituvchisi
Termez davlat universiteti Roman-german tillari kafedrasi lingvistika (nemis til) 1-
bosqich magistranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10486635>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis tilida grammatik va so'z yasash usullari orqali stilistik bo'yoqqa erishish imkoniyatlari borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: so'z birikmalarini o'rganish, weg; - omonim sifatli verbpantikellar: fest, frei, hoch; - omonim otli verbpantikellar.

Kirish (Introduction)

Ma'lumki, har bir til lug'at zaxirasi bilan boshqa tillardan ajralib turgani kabi nemis tilida ham ba'zi so'z yasalishi usullari, jumladan, Partikelverbbildung, Reduplikation, Rückbildung kabi usullar o'ziga xosdir, ular o'zbek tilida mavjud emasligi nemis tilini o'rganishda ko'pincha qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Nemis tiligagina xos bo'lgan ushbu so'z yasash usulini o'zbek tiliga na kalkalash, na muqobil tarjimaning imkoni borligi uni transliteratsiya orqali berishni taqazo etdi.

Zamonaviy tilshunoslikda so'z birikmasini alohida sintaktik birlik sifatida tadqiq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. So'z birikmasi haqida yirik tilshunos olimlar, taniqli germanistlar o'zlarining ilmiy izlanishlarida yoritishgan. Nemis tilida so'z birikmasini tadqiq qilish bo'yicha ko'plab doktorlik dissertatsiyalari yozilgan. Ot va fe'lli so'z birikmalarining alohida struktur turlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan L.V.Shishkovaning "Именные синтаксические группы с сочинительной связью в современном немецком языке" [3] va N.I.Filichevaning "Синтаксис глагольных словосочетаний современного немецкого языка" [2] mavzularidagi doktorlik dissertatsiyalari, shuningdek, turli funksional uslubdagi matnlardagi ot so'z birikmalarining tuzilishi va ko'lami tavsifiga bag'ishlangan ko'plab nomzodlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir. Yuqorida keltirilgan muammolarni ot so'z birikmali materiallar bo'yicha shakllantirish maqsadga muvofiqdir, chunki ular sintagmatikaning ushbu sohasida so'nggi o'n yilliklardagi nemis adabiy tilidagi belgilovchi tendensiyalardan biri - substantivlashtirish tendensiyasi bilan birlashadi [4; 161-b.]. Bu tendensiya nemis tili jumllarida substantiv guruhlar ulushining ortishidan dalolat beradi.

Ot guruhi jumla doirasini kengaytirish vositasi sifatidagi ahamiyati tufayli turli tillarda ko'plab tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi. Nemis tilining materialida ot guruhi V.G.Admoni [1] va uning shogirdlari asarlarida keng qamrovda yoritilgan. Ot guruhining tuzilishini nemis germanistlari [4] ham o'rganagan. Nemis olimlari E.Zommerfeldt va V.Bondsiolarning ot so'z birikmalarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari, shuningdek, bir qator maqolalarini so'z birikmalarini o'rganishdagi asosiy yo'nalishlar sifatida qarash muhimdir.

Partikelverbbildung (Partikelverbbildung) fe'llarga xos so'z yasash usulidir. Bunda so'z yasash asosi oddiy va murakkab fe'llar, kamdan-kam hollarda ot va sifatlardan tarkib topadi. Ular verbpantikellar (Halbpräfixe, Verbzusätze, Präverben, Präfixe deb ham ataladi) bilan birikib, murakkab fe'llarni hosil qiladi: an|kleben,

auf|erstehen, hinüber|gehen, hinunter|befördern, weg|rationalisieren, frei|sprechen, teil|nehmen; aus|kern(en), aus|dünn(en). So'z urg'usi verbpartikelga tushadi [1].

Boshqa murakkab yasama so'zlardan farqli tarzda partikelfe'llar morfologik va sintaktik jihatdan ajraluvchan bo'ladi. Morfologik ajraluvchan deganda sifatdosh 2 shakli yasalishida bevosita tashkil etuvchi qismlar o'rtasiga –ge- (aufgefallen, -ieren bilan tugovchi fe'llar bundan mustasno) va infinitiv qo'llanishida zu (um aufzufallen) qo'shilishi nazarda tutilsa, sintaktik ajraluvchan deganda, fe'llar gapda birinchi yoki ikkinchi pozitsiyada kelganda ushbu verbpartikellar o'zakdan ajralgan holda gapning oxiriga o'tishi tushuniladi (Steht er früh auf; er steht früh auf).

Ushbu so'z yasalish usuli borasida nemis tilshunosligida turli xil qarashlar uchraydi. Jumladan, Elke Donalies ajraluvchi fe'llarni «sintaktik qo'shilma»lar deb qaraydi va so'z yasalishiga qo'shmaydi [2]. Ilze Ayxinger faqat predlogli va ravishli verbpartikellarnigina bu turga qo'shadi [3]. Quyidagi verbpartikel turlari farqlanadi [4]:

- omonim predlogli verbpartikellar: auf, aus, mit, nach; - omonim ravishli verbpartikellar: her, herunter, hin, hinauf, weg; - omonim sifatli verbpartikellar: fest, frei, hoch; - omonim otli verbpartikellar. Bular kamchilik, odatda, motivlanmagan fellar tarkibida keladi; ushbu model mahsulsiz: q. teil|nehmen, teil|haben fe'llari tarkibidagi teil-; statt|geben, statt|finden fe'llari tarkibidagi statt-; wunder|nehmen fe'li tarkibidagi wunder-

Mazkur so'z yasalish usuli o'zbek tilida mavjud emas. O'z-o'zidan tushunarliki, uni chog'ishtirma aspektida o'rganishning imkoni mavjud emas.

Rückbildung: Xuddi partikelverbildung kabi mazkur so'z yasalish usuli ham transliteratsiya orqali berish maqsadga muvofiq. «Rückabteilung», [5]; «retrograde Ableitung»;; Tilgungskonversion deb ham ataladi, shunisi bilan boshqa so'z yasash usullaridan ajralib turadiki, bunda so'z (yasash asosi)dan suffiks qo'shib emas, balki u yoki bu suffiks tushib qolishi yoki almashishi natijasida yangi so'z hosil bo'ladi hamda o'sha asos o'z so'z turkumini ham o'zgartiradi. Rückbildunglarda so'z yasalish asosi qisqaroq emas, balki yasama so'z qisqaroq tarkibga ega bo'ladi (sanftmütig- so'z yasalish asos (yuvosh, beozor) > Sanftmut – Rückbildung yasama so'z [yuvoshlik, beozorlik]). Ular binar qismdan tashkil topgan deb emas, balki yasovchi asosga motivlangan murakkab bir butunlik deb tushuniladi: sanftmütig > Sanftmut, Zwangräumung > zwangräumen, elastisch > Elast, umsichtig > Umsicht.

Rückbildunglar quyidagi so'z yasalish modellari asosida hosil qilinadi: a. ot + otlashgan infinitiv/fe'llning noaniq shakli/implitsiv derivatsiya modelidagi ot-kompozitalar: kopfrechnen (boshida hisoblamoq) ← das Kopfrechnen (boshda hisoblash), segelfliegen (planyorda uchmoq) ← Segelflug (planyorda uchish). b. Rückbildung yasalishida olib tashlangan -er va -ung suffiksli ot- kompozitalar: staubsaugen (changyutkich bilan tozalamoq) ← Staubsauger (changyutkich), notlanden (favqulotda qunmoq) ← Notlandung (favqulotda qunish). s. Birinchi qismi sifat yoki ot bo'lgan qo'shma sifatdosh 2 shakllari: fernsteuern (masofadan boshqarmoq) ← ferngesteuert (masofadan boshqarilgan), maßschneiden (o'lcham olib bichib tikmoq) ← maßgeschneidert (o'lcham olib bichib tikilgan).

Rückbildunglarga xos xususiyatlardan biri ularning to'liq bo'lmagan flektiv paradigmasidir. Chunki ularning ko'pchiligi faqat infinitiv shaklda qo'llanadi: *Ich rechne(te) Kopf. Er kann gut kopfrechnen. *Wir segelflogen. Wir dürfen segelfliegen! O'zbek tili so'z yasalishida Rückbildungga o'xshash lisoniy hodisa kuzatilmaydi. Kontamination. Kontamination (Wortkreuzung, Wortschmelzung) (odatda, ikkita) leksemalarning o'zaro qisqarishi/birikishi/chatishuvi natijasida hosil bo'ladi: Formularifari ← Formular + Larifari, Kurlaub ← Kur + Urlaub, bunda, ko'pincha, bir yoki har ikkala

leksemada bir vaqtning o'zida qisqarish mavjud bo'ladi. Umuman olganda, Vindish (1991) Kontaminationning asosiy ikki strukturaviy turlarini qayd etadi: 1) So'z kesishmalari-Wortkreuzungen (gruschlen ← grüßen + kuscheln); 2) So'z chatishmalari-Wortüberschneidungen (Formularifari ← Formular+ Larifari).

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA JUFT SO'ZLAR

Juft so'zlar bo'yicha quyidagi manbalar sifatida Agricolaning „Wörter und Wendungen“, Brandschning „Phraseologische Wendungen in der deutschen Sprache“, Donaliesning „Basiswissen Deutsche Phraseologie“ Wolfgang Fleischerning „Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache“, Iskos A., Lenkova A.ning „Lesestoffe zur deutschen Lexikologie“, Hojiev A. „Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар“ kabi tilshunoslarning ushbu sohada olib borgan ilmiy izlanishlarini keltirishimiz mumkin. Ushbu ilmiy tadqiqotda asosan 500 dan ortiq juft so'zlardan foydalanilgan bo'lib, ular Graz universitetida ishlovchi professor Wernfried Hofmaysterning bugungi nemis tilida qo'llaniladigan juft so'zlarning jamlanmasi, shuningdek Georg Myullerning „Deutsche Zwillingformeln und ihr Gebrauch“ va Sh. Imyaminova va G. Tilavova tomonidan yozilgan „Nemis va o'zbek tillarida juft so'zlar“ lug'atlaridan tanlab olindi. Juft so'zlar ikki so'zning teng bog'lanishidan hosil bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Juft so'zlar har qanday tilda mavjud bo'lib, qaysidir ma'noda o'sha tilning boyishi uchun ham o'zining salmoqli hissasini qo'shadi. Nemis tilida juft so'zlar yasalishi muammosiga to'xtaladigan bo'lsak, juft so'z yasalishida xuddi frazeologizmlar kabi yangi so'z yasalishiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek ular so'z birikmasi ham bo'la olishadi. Juft so'zlar frazeologizmlarning bir qismi sifatida talqin qilinadi. Ko'pgina olimlar juft so'zlarning yasalish hodisasini turlicha izohlaydilar. Masalan Agrikola shunday deb yozadi: „Juft so'zlar har doim ikkita (ayrim hollarda esa uchta) o'xshash so'zlardan iborat bo'ladi. Ular o'zaro yaqin munosabatdagi so'zlardir“. [3;29]

Yuqoridagi fikrlarga qarama-qarshi fikrlar ham mavjud bo'lib, juft so'zlar har doim ham o'zaro yaqin ma'noga ega bo'lgan so'zlardan emas, ba'zida umuman qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ham tashkil tolishi mumkin. Lekin shu narsani alohida ta'kidlash joizki, juft so'zlarning ikki komponenti ham xuddi sinonim va antonim so'zlar kabi bir xil so'z turkumida kelib bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Ya'ni juft so'zlar komponentlaridan biri ot, keyingisi esa sifat bo'la olmaydi. „Juft so'zlar nemis tilida Wortpaare deb nomlanadi. Ular ma'no jihatdan bir-biriga yaqin va qarama-qarshi bo'lgan so'zlarning o'zaro juftlashuvidan hosil bo'ladi“.[4.51] Masalan: bei Wasser und Brot – non-suv, in Wehr und Waffen – qurol – yarog', Tür und Tor – eshik-darvoza, mit Strumpf und Stiel- tag tomiri bilan, kurz und gut – qisqasini aytganda, bir so'z bilan aytganda, nach Jahr und Tagyil-u kun, Sunde und Schande – uyat va sharmandalik.

Tilshunos olim Agrikolaning juft so'zlarning uchta so'zdan ham iborat bo'lishi haqidagi fikrni yuqorida keltirib o'tdik. Lekin bu kamdan-kam uchraydigan holat. Fikrimizning tasdig'i sifatida L.E. Binovichning „DeutschRussisch Phraseologisches Wörterbuch“ lug'atida xuddi shunday frazeologizmlar mavjud. Masalan: Blitz, Donner und Nagel – yuzma-yuz, yakkama-yakka, Himmel, Arsch und Wolkenbruch – yer-u samo.

Ushbu juft so'zlarning stilistik ottenkasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular juda ham pastki qatlamda yani, qo'pol so'zlashuv tilida foydalaniladi. Juft so'zlarga turlicha ta'riflar berilgan bo'lsada, bularning barchasi bir-birini to'ldiradi. „Juft so'z bu – tilshunoslik atamasi bo'lib, ko'pincha bir so'z turkumidagi o'xshash so'zlardan tashkil topgan juftlik, ya'ni nutqda ishlatiladigan ifodadir“. Duden o'zining „Deutsches Universalwörterbuch lug'atida ham xuddi shunday ta'rif beradi. „Juft so'z bu so'z turkumidagi ikki so'zning o'zgarma birligidir. Zwillingformeln, masalan frank und frei. Tilshunos olim F. Zeller juft so'zlarni qoida bo'yicha und (va) bog'lovchisi orqali, ayrim hollarda esa oder (yoki) bog'lovchisi

orqali bog`lanishini tushuntiradi. Misol tariqasida Recht oder Unrecht, Zieg oder Tod, uber kurz oder lang kabi juft so'zlarini keltirishimiz mumkin. Juft so'zlar o'z prinsipi asosida qurilishi kerakligi bilan boshqa frazeologik birikmalardan ajralib turadi. Chunki bu frazeologik birikmalar o'zgarimas va boshqa frazeologik birikmalar bilan qo'shib ketishi mumkin emas. Shuningdek juft so'zlarda biror bir so'zni qo'shish ham, olib tashlash ham yoki uning joyini o'zgartirish ham mumkin emas. Shu o'rinda juft so'zlar ham frazeologiyaning bir tarmog`i ekanligi namoyon bo`ladi.

O`zbek tilida esa juft so`zlar tilning qonun-qoidalariga muvofiq holda ikki so`zning teng bog`lanishidan hosil bo`lgan birliklar kelib chiqadi. Yuqorida aytib o`tganimizdek nemis tilida juft so`zlar und, oder, bog`lovchilari orqali hosil bo`lsa, o`zbek tilida juft so`z boglovchi orqali juftligini hosil qilmaydi. Aksincha "chiziqcha" (-) belgisi bilan ifodalanadi. Masalan: qovun-tarvuz, eson-omon, yaxshi-yomon, ota-ona, o`g`il-qiz. "Juft so`zlarning yasalishi yangi so`z yasash hodisasini keltirib chiqaradi".[6;41] O`zbek tilida jumladan barcha tillarda juft so`zlarning mavjudligi shu tillarning taraqqiyot darajasini ko`rsatuvchi belgilardan biri deb hisoblanadi. Hozirgi o`zbek tilida so`z yasashning eng mahsuldor usuli affiksatsiya usulidir. Affiksatsiya usulida o`zak negizlarga so`z yasovchi affikslar qo`shish orqali yangi so`z hosil qilinadi. Masalan: yopiq, tishla, o`yla, tingla.

Adabiyotlar:

1. Fuhrhop N. Verbale Komposition: Sind brustschwimmen und radfahren Komposita? Kauffer, Maurice / Métrich, René (Hrsg.). V. 26, № 2, pp. 49-58, 2017.
2. Dudenband 4. Die Grammatik: Unentbehrlich für richtiges Deutsch. Hg. von der Dudenredaktion. Mannheim: Dudenverlag, 2019.
3. Erben J. Zur Frage der ‚Rückbildung‘ (retrograden Ableitung) als Möglichkeit der Wortbildung// ZEITSCHRIFT FÜR DEUTSCHE PHILOLOGIE, № 01, pp. 93-100, 2013.
4. Lohde M. Wortbildung des modernen Deutschen. Ein Lehr- und Übungsbuch. Bad Schönborn: Narr, 2016.
5. Iskos A., Lenkova A. Lesestoffe zur deutschen Lexikologie. Leningrad, Procvischinia, 1975.